

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUMINOVA ZARIFA ODILOVNA

**TAFAKKURNING DISSIPATIV STRUKTURA SIFATIDAGI
SINERGETIK TAHLILI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по философским наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)
on philosophical sciences**

Muminova Zarifa Odilovna

Tafakkurning dissipativ struktura sifatidagi sinergetik tahlili 3

Муминова Зарифа Одиловна

Синергетический анализ мышления как диссипативной структуры 29

Muminova Zarifa Odilovna

Synergetic analysis of thinking as a dissipative structure 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUMINOVA ZARIFA ODILOVNA

**TAFAKKURNING DISSIPATIV STRUKTURA SIFATIDAGI
SINERGETIK TAHLILI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Fal146 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Turayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ortiqov To'lanboy Ortiqovich
falsafa fanlari doktori, professor

G'afforova Gulchehra G'ulamjanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Salimov Baxriddin Lutfulloyevich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 23519-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (98-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: 66) 231-15-86, (8366) 235-27-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y berayotgan geoiqtisodiy, geomafkuraviy, demografik, texnokratik, informatsion, gumanitar jarayonlar dinamikasi inson tafakkur tarzining dialektik va sinergetik tabiatga egaligi, ya’ni o‘zgaruvchan, rivojlanuvchi, murakkab, nochiziqli hamda xaotikligi bilan izohlanmoqda. Bu esa, bir tomondan inson tafakkuridagi sinergetik fluktuatsiyani (inson ehtiyojlari va manfaatlar, qadriyatlar tizimining rang-barang hamda universalligi bilan bog‘liq hodisalar) anglatadi, ikkinchi tomondan inson bilish faoliyatining murakkab va polifunksional mohiyatga egaligi tufayli ro‘y bermoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan yuqori suratdagi global o‘zgarishlarning inson va butun borliq kelajagiga ta’sirini nazoratda saqlashning yagona yo‘li hamda insonni boshqaruvchi asosiy mexanizmi hisoblanuvchi tafakkur hodisasining mohiyatiga chuqurroq kirib borishni taqozo etmoqda. Bundan kelib chiqib, inson tafakkur tarziga tizimli yondashish va ushbu jarayonga sinergetik metodologiya tamoyillari (nochizlilik, o‘z-o‘zini tashkillashtirish, barqarorlik va beqarorlik, xaos va tartibot)dan samarali foydalanishning psixofiziologik mexanizmlarini aniqlash ehtiyojini kuchaytirmoqda.

Jahon ilm-fanida inson tafakkur tarziga oid muammolarning sinergetik xossalari o‘rganish bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tafakkurni tadqiq etishda murakkab, nochiziqli sistema, inson ratsional faoliyatining asosi hamda ijtimoiy tizimlarni boshqaruvchi muhim kuch sifatida yondashuv, shuningdek, sinergetik tahlil qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy nazariy, falsafiy, amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunga kelib Yevropa va AQSHning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda insonning ma’naviy borlig‘ini qadrsizlanishi (devalvatsiyasi) borasidagi muammolarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Vaholanki, inson tafakkuriga sinergetik yondashuv asosida, uning ichki mohiyatini anglash hamda undagi beqaror, bifurkatsion, xaotik holatlar zahirida yotuvchi o‘z-o‘zini tashkillashtirish mexanizmlarini aniqlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mazkur muammolar yechimida inson borlig‘i, ekzistensial mohiyati va hayot tarzining muhim tarkibiy elementi bo‘lgan tafakkur sistemasini zamonaviy fan yutuqlari asosida falsafiy-metodologik tahlil qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson qadri, erki, farovon turmush tarzi, shaxsiy daxlsizligi, imkoniyat va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida olib borilmoqda. Bu maqsad amaliyoti yo‘lida, ya’ni inson tafakkur tarzini oqilona shakllantirish, uning bilish imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish borasida barcha konstruktiv mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Zero, zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va texnologiyalarni yaratuvchi salohiyatli yosh kadrlarni, innovativ va kreativ fikrlovchi mutaxassislarini shakllantirish, ularni tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo talablariga javob beradigan konseptual g‘oyalar, integratsion loyihalar bilan qurollantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. “Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o‘z

vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish...mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"¹. Bu vazifalarni amalga oshirish esa inson omiliga aynan sinergetik tahlilning tarkibiy qismi bo'lgan tizimli yondashuv asosidagi metodologiyani shakllantirmoqda. Bu esa, ijtimoiy sohaning deyarli barcha sohalarida mavjud muammolarning noodatiy, kreativ, konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish hamda yangicha tafakkur tarzi bilan bog'liq noxiziqli (sinergetik) yondashuv borasidagi tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:²

Noxiziqli tafakkur, kreativlik, tafakkur tarzidagi ijodkorlik va erkinlik masalalarining falsafiy, epistemologik va evristik jihatdan tadqiq qilish, psixofiziologik asoslarini o'rganish bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Shtuttgart (Germaniya), Brussels School of international Studies (Belgiya), Houston State University, Oregon Universiteti, Lab at Stanford University (AQSh), Oxford University's (Buyuk Britaniya), University of South Carolina (Columbia), Институт высшей нервной деятельности и нейрофизиологии РАН, Центр Междисциплинарных Исследований им С.П. Курдюмова "Сретенский клуб", Московский педагогический государственный университет, (Rossiya), O'zbekiston Milliy universiteti va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – Б. 237.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.simplypsychology.org>, <https://mediax.stanford.edu/>, <https://www.harvard.edu/>, <https://sc.edu/>, <https://www.shsu.edu/>, <https://ion.ranepa.ru/>, <https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/futuremind/>, <https://www.fondgp.ru/mmk/> va boshqa manbalarda asosida tayёрlangan.

(O‘zbekiston) yetakchi olimlari va faylasuflari tomonidan sinergetik metodologiya doirasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda tafakkur tarzi murakkab tizim va ijtimoiy ruhiy, biofiziologik hodisa sifatida tadqiq etilgan hamda jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: sinergetik metodologiya qonuniyatlari tabiiy fanlar doirasidagi tadqiqotlarning eng samarali usuli sifatida talqin etilgan (University of Shtutgart, Germaniya); sinergetikaning asosiy tamoyillari murakkab sistemalarni tadqiq qilishning usuli sifatida qo‘llanilib, o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasining samarali mexanizmlari takomillashtirilgan (Brussels School of international Studies, Belgiya); tafakkurning psixofiziologik muammolari ochib berilgan (Houston State University); miyaning tafakkur faoliyati va mexanizmlari muammosi chuqur tahlil etilgan (Oregon Universiteti); tafakkurning neyrobiologik strukturasi masalalari yoritib berilgan (Lab at Stanford University, AQSh); zamonaviy jahon falsafasi manbalarida kognitiv konstruktivizm tafakkur tarzi kreativligining intellektual asosi ekanligi borasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, kognitologiyaning ilmiy asoslari bo‘yicha konstruktiv loyihalar amalga oshirilgan (Oxford University, Buyuk Britaniya); tafakkurning kognitiv rivojlanishidagi bir necha ko‘rinishlar, xususan, radikal konstruktivizm, kognitiv konstruktivizm, ijtimoiy-madaniy nazariya va tanqidiy nazariyalar o‘rtasidagi aloqadorliklar, ziddiyatlar qiyosiy tahlil etilgan (University of South Carolina, Columbia); miya va asab tizimining murakkab kompleksiv jihatlari hamda o‘zaro aloqadorlikdagi faoliyati tadqiq etilgan (Институт высшей нервной деятельности и нейрофизиологии РАН); ijtimoiy-madaniy va intellektual faoliyatning keng doirasini tahlil qilish orqali o‘ziga xos tizimli fikrlash yondashuvi ishlab chiqilgan (Центр Междисциплинарных Исследований им С.П.Курдюмова “Сретенский клуб”); fanning so‘nggi yutuqlari va jamiyat taraqqiyotini falsafiy tushunishga konstruktivizmning, ayniqsa konstruktiv realizmning ta’siri aniqlangan (Московский педагогический государственный университет, Rossiya); xaotik, ochiq, nochiziq, murakkab tizimlar nazariyasi falsafiy-konseptual asoslanib, sinergetik paradigmaning ijtimoiy munosabatlarni, ta’lim sistemasini, ma’naviy merosni, shaxsni tahlil etish borasidagi imkoniyatlari ochib berilgan (O‘zbekiston Milliy universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda sinergetikaning metodologik, integrativ, kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: aniq va tabiiy fanlar tizimida sinergetik metodologiya prinsiplaridan foydalanish masalalari; zamonaviy fizika, kibernetika, kimyo, biologiya, genetika, nanotexnologiya sohalaridagi muammolarni tizimli tahlil etish borasida; jamiyatni, butun bir ijtimoiy-siyosiy strukturalarni, shaxsni murakkab va ochiq sistema sifatidagi mohiyatini ochib berishga oid; xaotik sistemalarda tartibotning kelib chiqishi hamda nochiziq rivojlanuvchi tizimlardagi konstruktiv imkoniyatlar; o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasining shaxs kamolotidagi ahamiyati borasida; barqarorlik va beqarorlik, kaos va

tartiborning nisbiy xususiyati hamda tasodifiylikning funksional xususiyatlarini ochib berish borasida samarali izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tafakkur muammosi azal-azaldan olimlar, faylasuflar, ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu jumladan formal, dialektik, ilmiy-nazariy, proyektiv, sinergetik tafakkur tarzi borasida falsafiy taraqqiyot bosqichlarida keng ko'lamdagi tadqiqot ishlari taqdim etilgan. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita tafakkur tarzi hamda sinergetik metodologiya bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Jumladan, U.Naysser, R.Sheppard, J.Piaje kabi tadqiqotchilar tafakkur genezisi va rivojlanishning ontologik jihatlarini murakkab tizimli tahlil obyekti sifatida asoslab berishgan. F.Varela, R.Vatslavik, I.Glazerfeld, J.Kelli, U.Maturana T.Lukman, Z.Shmidt, A.Shyus, G.Rot, G.Rom, N.V.Danilyanning sotsiologik tadqiqotlarida konstruktivizm bo'yicha falsafiy, psixologik, psixodiagnostik muammolar sinergetik metodologiya tamoyillari asosida tahlil etilgan.³ Shuningdek, Gilford, K.Taylor, G.Gruber izlanishlarida ijodiy qobiliyat (kreativlik) intellektga bog'lab o'rganilgan. AQShlik olimlar U.Jems, J.Dyui, P.U.Brijmen tadqiqotlarida kreativ tafakkur muammoli vaziyatlarni yechishning evristik usuli sifatida asoslangan. A.Bergson izlanishlarida kreativlik ixtirochilik, innovatsion tafakkur sifatida ochib berilgan. Shuningdek, E.Gusserl, A.Puankare, A.Uaytxed, N.Gartman va boshqa faylasuflarning ilmiy ishlarida tajriba va kreativlikning uzviy aloqadorligi nazariy va falsafiy jihatdan takomillashtirilgan.

Ikkinchi guruh. MDHda tafakkur tarziga sinergetik yondashuv masalasi. Bu borada, ayniqsa, R.V.Barantsev, V.P.Branskiy,⁴ V.V.Vasilkova,⁵ Ye.N. Knyazeva,⁶ S.P. Kurdyumovlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ularning ilmiy izlanishlarida tafakkur ko'p qirrali, nochiziq rivojlanuvchi, o'zgaruvchan, murakkab Sistema sifatida o'rganilgan. A. Rudenko, I.M. Sechenov, N. Moiseev,⁷ S.P. Korolenko,⁸ T.A.Donskix, O.A.Losev,⁹ V.S.Yegorov,¹⁰ V.I. Vernadskiy,¹¹ M.S. Kagan, I.S. Kon, O.I.Kondrateva, I.I. Loginov, A.A.Migolatev va boshqalar murakkab ochiq tizimlarni tadqiq qilishda sinergetik yondashuv masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa, erkin tafakkur, nochizikli kreativ tafakkur masalalari V.E. Kemerov, L.N.Kogan V.E.Davidovich, V.I.Kopalov, K.N.Lyubutin,

³ Mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

⁴ Бранский В.П. Теоретические основания социальной синергетики // Вопросы философии. – 2000. – № 4. – С. 112-129.

⁵ Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем. Синергетика и теория социальной самоорганизации. – СПб.: Лан, 1999.

⁶ Курдюмов С.П., Князева Е.Н. Синергетика: нелинейность времени и ландшафты коэволюции. - М.: Эдиториал. 2007. - С 19.

⁷ Моисеев Н. Н. Современный рационализм и мировоззренческие парадигмы Общественные науки и современность// - Москва, 1994. № 3. – С.117

⁸ Короленко Ц.П., Донских Т.А. Обзор теоретических аспектов деструктивного поведения. – Красноярск: Наука, 2016. - С.247

⁹ Лосев О.А. Культурологические парадигмы личности в XXI веке. Философия и общество. - М., 2008. С. 42

¹⁰ Егоров В. С. Синергетика: человек, общество. – М., 2000. – С. 17

¹¹ Вернадский В.И. Научная жизнь планетное явление. – М.: Наука. 1991. – С.62

K.N.Narskiylar asarlarida keltirilgan. R.B.Sabekiya, A.S.Ryabov,¹² N.Urmantsevlar tadqiqotlarida esa ijtimoiy sistemalarni tadqiq qilishda sinergetikadan foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Uchinchi guruh. Mamlakatimiz tadqiqotchilari va olimlari ham tafakkur tarzi hamda sinergetikaning nazariy-metodologik muammolari xususida salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishmoqda. Jumladan, O.F.Fayzullay,¹³ M.N.Abdullayeva, B.R.Karimov, B.O.Turayev,¹⁴ Z.D.Davronov, R.M.Imomalieva, H.A.Shermuxammedova, Sh.S.Qo'shoqov,¹⁵ T.Ortiqov, E.O.Quvandiqov,¹⁶ A.Choriev, S.A.Choriev, Z.R.Qodirova, G.G'. G'affarova, M.Q.Niyazimbetov, D.M.Bozarov,¹⁷ G.S.Sultanova, M.X.Ergasheva,¹⁸ B.U.Raxmonovlar bu borada samarali izlanishlar olib borishgan. Jumladan, O.F.Fayzullayev tadqiqotlarida tizimlar nazariyasi, shuningdek, ochiq va yopiq tizimning sinergetik xususiyatlari tahlil etiladi. B.O.Turayevning qator ilmiy monografik tadqiqotlarida sinergetik metodologiyaning mohiyati, asosiy kategoriyalari, zamonaviy ilm-fandagi ahamiyati ochib beriladi. D.M.Bozarov izlanishlarida sinergetik paradigmalari, fraktallar, xaotik sistemalar tahlil etilsa, G.S.Sultanova tadqiqotlarida esa aynan tafakkur tarzining sinergetik tabiati asoslanadi.

Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida bayon etilgan tadqiqot ishlarida tafakkur tarzining sinergetik tizim sifatidagi mohiyati ochib berilmagan. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida asosiy e'tibor tafakkurning murakkab tizim sifatidagi sinergetik tahliliga qaratildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi inson tafakkurini murakkab fenomen va dissipativ struktura sifatida sinergetik mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

tafakkurning murakkab dissipativ struktura va ijtimoiy dinamik hodisa sifatidagi falsafiy definititsiyasini epistemologik tahlilini amalga oshirish;

tafakkurning murakkab psixofiziologik jihatlarini tadqiq qilish orqali uning ijtimoiy relevantlikning asosi ekanligini sinergetik jihatdan ochib berish;

tafakkur va ong tushunchalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish orqali tafakkurning inson mavjudligining atributiv xossasi ekanligini asoslab berish;

¹² Рябов А.С. Категория случайности в свете синергетики // <http://www.dslib.net/ontologia/kategorijasluchajnosti-v-svete-sinergetiki.html>

¹³Файзуллаев О. Фалсафа фанлари методологияси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 123 б.

¹⁴Тўраев Б. О. ва бошқалар. Синергетика 3: //Т.: Фан зиёси нашриёти. – 2024. – С. 213

¹⁵Кушаков Ш.С. Опыт применения идеи форматов мышления к исследованию античной философии // Маънавий меросда ворислик ва унинг XXI аср таълим-тарбиясидаги ўрни мавзусидаги республика анъанавий илмий-амалий конференцияси материаллар тўплами. Самарқанд, 2021. - С.21.

¹⁶Кувандиков Э.О. Педагогик синергетика асослари. – Самарқанд: СамДУ, 2007. – Б. 126.

¹⁷Бозаров Д.М. Синергетик парадигма. –Тошкент.: Тафаккур, 2010. –Б.152.

¹⁸Эргашева М.Х. Таълимнинг синергетик қонуниятлари: назарий методологик таҳлил: Фалс. фан. док. ... дисс. ... автореф. –Самарқанд, 2022. –79 б.

sharq va g'arb faylasuflarining ontologik, gnoseologik, ijtimoiy psixologik qarashlarida sinergetik mazmun va murakkab tizimli yondashuv elementlarini tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari orqali yoritib berish;

tafakkur jarayonida erkinlik va kreativlikning o'zaro aloqadorligi va sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishning zamonaviy muammolarini sinergetik nuqtai nazardan ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida inson tafakkurining dissipativ tuzilishi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini inson tafakkuri tizimini sinergetik metodologiyaning asosiy tushuncha va tamoyillari asosida o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiya kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ongli va ongsiz faoliyatning sintezi sifatida ijodkorlikning tafakkurda beqarorlik, o'z-o'zini tashkillashtirish va nochiziqli kreativ faoliyat uyg'unligi korrelyatsiyasi ekanligi asoslab berilgan;

tafakkur va miyaning o'zaro munosabati, harakat impulsi va strukturasi bilan bog'liq yechimlar sinergetikaning fluktuatsiya va attraktor tamoyillari asosida isbotlangan;

tafakkurning moddiy asosi miyaning perietal va sensorik funksiyalarining psixofiziologik hodisa sifatida bilish jarayonini yuzaga keltirishdagi evristik ahamiyati ochib berilgan;

tafakkur ijtimoiy relevantlikning asosi va kishilarning jamiyatdagi ijtimoiy ma'naviy mo'ljallarini to'g'ri shakllantirishining, kishilardagi deviativ jarayonlarni koordinatsiyalash, delikventlikdan himoyalaniish vazifasini bajarishi mantiqiy dalillangan;

tafakkur jarayonidagi erkinlikning kreativ tafakkurga zamin yaratish bilan bir qatorda, jamiyat mafkuraviy tizimiga konstruktiv va destruktiv ta'sir etishi sinergetikaning bifurkatsiya va fluktuatsiya tamoyillari asosida ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tafakkurga dissipativ struktura sifatida tizimli yondashuvni shakllantirish, ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning saviyasini yanada boyitishga xizmat qilgan;

inson tafakkuriga murakkab psixofiziologik hodisa sifatida tizimli yondashishning afzalliklari ilmiy nazariy asoslab berilgan xulosalardan mamlakatimizda kreativ, ijodkor, yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirish sohasida metodologik qo'llanma sifatida foydalanilgan;

globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va informatsion jamiyatning shakllanib borishi inson tafakkur tarziga tashqi ta'sirlarning kuchayishi sharoitida jamiyatda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishga ta'sir etuvchi institutlarning uzviy hamkorligini ta'minlashda mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan tavsiyalardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan monografiya va ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalardagi chiqishlari, tadqiqot ishi yuzasidan berilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan sinergetik tafakkur tarzi, nochiziqli kreativ tafakkur tarzini shakllantirish muammolarini tizimli o'rganishda foydalanish imkoniyati, bilish faoliyatida falsafiy refleksiyadan foydalangan holda murakkab dissipativ strukturalarni chuqurroq bilish va nazariy-fundamental tadqiqotlar hamda uslubiy yondashuvlar vositalarini takomillashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va g'oyalardan oliy o'quv yurtlarida falsafa yo'nalishining bakalavriyat va magistratura bosqichlarida o'tiladigan "Falsafa va fan metodologiyasi", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi", "Hozirgi zamon ilmiy tafakkur tarzi. Sinergetika", "Fan falsafasi", "Ontologiya va bilish nazariyasi", kurslaridan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, mavzuga oid ilmiy-ommabop ma'ruzalar, illyustrativ taqdimotlar tayyorlashda, falsafiy lug'atlarni va boshqalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tafakkurga dissipativ struktura sifatida sinergetik yondashuv asosida ishlab chiqilgan takliflari asosida:

ongli va ongsiz faoliyatning sintezi sifatida ijodkorlikning tafakkurda beqarorlik, o'z-o'zini tashkillashtirish va nochiziqli kreativ faoliyat uyg'unligi korrelyatsiyasi ekanligi asoslab berilganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflaridan O'zbekiston respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan olingan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2020-2022 yillar davomida bajarilgan FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining 2023-yil 13-iyundagi 04/11-3652-son dalolatnomasi). Natijada inson tafakkuriga sinergetik yondashuv uning mohiyatini anglash jarayoniga tizimli va nochiziqli yondashuv asosida mamlakatimizda kreativ, ijodkor, yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

tafakkur va miyaning o'zaro munosabati, harakat impulsi va strukturasi bilan bog'liq muammolar sinergetikaning fluktuatsiya va attraktor tamoillari asosida isbotlanganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalar va amaliy tahlillardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariylarini tayyorlashda hamda Markaz tomonidan buyurtma asosida tayyorlangan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi" nomli ensiklopedik kitobining mazmuniga singdirilgan loyihalarni amalga

oshirishda foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2024-yil 10-yanvardagi 02/13 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ensiklopedik kitobning ilmiy-metodologik manbaalar bazasini boyitish hamda O'rta asr Sharq faylasuflarining sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishga oid qarashlarini tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari orqali yoritib berishga xizmat qilgan;

tafakkurning moddiy asosi miyaning parietal va sensorik funksiyalarining psixofiziologik hodisa sifatida bilish jarayonini yuzaga keltirishdagi ahamiyati ochib berilgan ilmiy yangiligidan va ushbu doirada ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm fan ma'rifat targ'iboti" 15 bandi "Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika ma'naviyat kengashining 2023 yil 30-oktabrdagi 02-22/1184-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar inson tafakkurini murakkab fenomen va dissipativ struktura sifatida sinergetik mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan;

tafakkur ijtimoiy relevantlikning asosi va kishilarning jamiyatdagi ijtimoiy ma'naviy mo'ljallarini to'g'ri shakllantirishning, kishilardagi deviativ jarayonlarni koordinatsiyalash, delikventlikdan himoyalash vazifasini bajarishi dalillangan ilmiy yangiligidan va shu doirada ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy, harbiy vatanparvarlik tadbirlarini amalga oshirishda keng foydalanildi. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "2019-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi yoshlarida millatlararo madaniyat, bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish" konsepsiyasi loyihasini hamda, "Yoshlarda millatlararo madaniyatni rivojlantirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi" loyihasini tegishli bandleri ijrosini ta'minlash va amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 8-noyabr 2023-yildagi 4-13-21-3233 sonli dalolatnomasi). Natijada, mamlakatimizda kreativ, ijodkor, yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni qollab quvvatlash bilan bog'liq vazifalarning bajarilishini ta'minlash borasida amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish ishlarining samaradorligi oshdi;

tafakkur jarayonidagi erkinlikning kreativ tafakkurga zamin yaratish bilan bir qatorda, jamiyat mafkuraviy tizimiga konstruktiv va destruktiv ta'sir etishi sinergetikaning bifurkatsiya va fluktuatsiya tamoyillari asosida ilmiy asoslanganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, hamda amaliy takliflaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom Samarqand" ko'rsatuvining 2023-yil 14-avgust kuni soat 07:00 da efirga uzatilgan sonining ssenariysini hamda "Dolzarb mavzu" radioeshittirishining 2023-yil 16-avgust kuni

soat 16:25da efirga uzatilgan navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 24 avgustdagi 01-07/285 son dalolatnomasi). Natijada, mamlakatimizda zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va texnologiyalarni yaratuvchi yosh, innovativ va kreativ fikrlovchi, yangicha tafakkur tarziga ega yosh mutaxassislarni tarbiyalashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan 3 ta monografiya, O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (9 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 235 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob‘ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tafakkur murakkab biosotsial va ruhiy-ma‘naviy tizim sifatida**” deb nomlangan birinchi bobida inson tafakkuri, uning tuzilishi, mexanizmlari, tizim tashkil qiluvchi elementlari va harakatga keltiruvchi omillari masalalari tahlil qilingan. Ushbu bobda borliq va mavjudlikning shunchaki bir tarkibiy qismi emas, uning eng kuchli, hal qiluvchi elementi bo‘lgan inson va uni harakatga keltiruvchi, faoliyatining substansional asosi bo‘lgan tafakkur jarayonini, uning biologik va ijtimoiy, ma‘naviy tizim sifatidagi sinergetik tahlilini amalga oshirishga harakat qilingan. Chunki yuqorida ta‘kidlaganidek, inson borliqning eng faol va qudratli qismiga aylandi va borliqning, butun mavjudlikning istiqboli ko‘p jihatdan inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Birinchi bobning birinchi paragrafi “**Tafakkur va ongning ijtimoiy dinamik va falsafiy definitsiyasi**” deb nomlangan bo‘lib, bunda biz sinergetikaning hamkorlik tamoili asosida murakkab jarayon hisoblangan tafakkurning ijtimoiy dinamik xususiyatlarini, miya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan fiziologik mexanizmi va ushbu mexanizmning tafakkur bilan dialektik aloqadorligini, tafakkurning inson ijtimoiylashuvi va uning faoliyatidagi relevantlik, muvofiqlik, mutanosiblik va moslik munosabatini shakllantirishdagi ahamiyati masalalarini falsafiy tadqiq

etamiz. Ushbu paragrafda tafakkur inson biosotsial va ruhiy-ma'naviy borlig'ining atributiv elementi va o'zaro aloqadorlikdagi namoyon bo'lishi orqali inson faoliyatiga tartibot, ketma-ketlik, bir butunlik, shakl va mazmun uyg'unligi, maqsadga muvofiqlik singari jihatlar baxsh etishini ilmiy asoslashga harakat qilamiz.

Zero, bugungi kunda insoniyat murakkab tarixiy burilish davri, bifurkatsion nuqtada turibdi. Bunda, falsafa, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya fanlarining ilmiy xulosalari va tadqiqotlarini analiz va sintez qilish orqali yangi ilmiy xulosalarni keltirib chiqarishga harakat qilamiz. "Biz insonlar tabiatdagi eng takomillashgan mavjudot ekanligimizdan, atrofimizda ro'y berayotgan hodisalarni anglay olishimiz, mushohada qilishimiz, boshqalarga ham bu haqda xabar bera olishimiz, farzandlarimizni tarbiyalay olishimiz, bilganlarimizni boshqalarga ham o'rgata olishimiz, dunyoda mustaqil faoliyat yurita olishimiz, mehnat qilishimiz, o'zimizni va o'zgalarni qadrlay olishimiz, o'z fikriga ega bo'lib, bu fikrni boshqalarga ham uzata olishimiz, tabiatda ilgari bo'lmagan narsalarni kashf qilib, ijodiy faoliyat olib borish va turli sohalarda san'atkor bo'lish kabi imkoniyatlarga ega mavjudot ekanligimiz uchun ham taqdirdan minnatdor bo'lishimiz lozim".¹⁹ Darhaqiqat, insonning oliy mavjudot ekanligini belgilab beruvchi asosiy jihat bu tafakkurdir. Tafakkur vositasida inson borliqni o'zlashtiradi, o'zgartiradi. Tafakkur vositasida inson borliqqa faol ta'sir o'tkazadi, borliqning aktiv bo'lagiga aylanadi. Inson tafakkur sohibi ekan, u borliq evolyutsiyasining bir elementi sifatidan evolyutsiyaning harakatlantiruvchisi sifatiga ko'tariladi. Tafakkur – insonning yuqori darajali qobiliyati bo'lib, nafaqat inson xatti-harakati va faoliyatini, balki butun bir hayotini boshqarishda faol ishtrok etadi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "**Tafakkurning fiziologik va ruhiy-ma'naviy xossalari birligi**" deb nomlangan. Tafakkur ayni mavjudlikni, makon va vaqt nuqtayi nazaridan insondan ajralib turgan voqea-hodisalarni, kelajakni tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Insonni boshqa qit'alar, asrlarga boshlaydi. Shu bilan birga, tafakkur insonning ichki olamini, hayotiy maqsadlarini aks ettiradi. Tafakkur insonga o'z xatti harakatini to'g'ri baholash, xatolari va yutuqlaridan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini beradi. Inson o'zining ongli faoliyati bilan o'ziga va o'zinikilarga foyda keliruvchi mashg'ulot bilan shug'ullanadi. Bu maqsadga muvofiq va foyda keltiruvchi mashg'ulot – mehnatdir. Inson mehnat jarayonida o'zini takomillashtirib boradi va o'zining faoliyatiga, boshqalarning faoliyatiga baho beradi. Atrofdagi o'zi uchun va boshqalar uchun kerakli oob'yektlarni, predmetlarni va voqea hodisalarni ularning qadr-qimmatiga mos ravishda, baholaydi. Shu asosda yaxshi va yomonni farqlaydi. Shunday qilib, ong – borliqning ma'naviy shaklidir.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, tafakkurning fiziologik asosi bu – miyadir. Shu sababdan ham, tafakkur jarayonining biologik va fiziologik asosi, xossalari miya bilan bog'liq holda kechadi. Miya va tafakkur jarayoni bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda va bir-biriga doimiy tarzda ta'sir o'tkazadi. Chunki aynan asab

¹⁹ Тўраев Б. Борлик моҳияти, шакллари, хусусияти. - Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. - Б.101.

tizimi orqali beriladigan impulslar asosida kishilarda tafakkurlash jarayoni va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir butun sub‘ektiv olami shakllanadi. Miya va tafakkur jarayoni o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p yillar davomida dialektik jarayon sifatida falsafiy tadqiqotlar muammosi sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Chunki bunda ikki tomonlama aloqadorlik va o‘zaro ta’sir mavjud deb hisoblanilgan. Biz esa ushbu jarayonni murakkab, ko‘p qirrali, murakkab tarkibiy strukturaga ega bo‘lgan jarayon sifatida sinergetik tadqiq etishga harakat qildik. Zero, inson miyasi va tafakkur jarayoni mavjud murakkab tizimlar ierarxiyasida eng oldingi qatorlarda turadi. Ushbu masala bugungi kunda falsafiy, psixologik, pedagogik, tibbiy va fiziologik sohaga oid tadqiqotlarning umumiy muammosi hisoblanadi. Yuqorida biz sanab o‘tgan sohalar o‘rtasidagi aloqadorlik va hamkorlik ushbu jarayonning yangi qirralarini va jihatlarini tadqiq etish imkonini beradi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi **“Tafakkur – ijtimoiy relevantlikning namoyon bo‘lish shakli, deb nomlangan”**. Insoniyat murakkab, globallashgan, axborotlashgan ijtimoiy makonda yashamoqda. Jadal sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan, strukturaviy jihatdan murakkablashib borayotgan va keskin dinamik o‘shirlarni boshdan kechirayotgan ijtimoiy munosabatlar va hayot sur‘atlarining tezlashishi, insonda ushbu munosabatlar doirasida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, ushbu munosabatlar doirasida moslashish, mutanosib harakatlanish va hayotiy mo‘ljallarini to‘g‘ri shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammo o‘tish davrini boshdan kechirayotgan ijtimoiy tuzumlar hayotida yanada kuchliroq seziladi. Chunki o‘tish davri mamlakat va ushbu mamlakatda yashovchi xalqlarning hayot tarzida keskin o‘zgarishlar, tub burilishlar, ma’lum bir normalar doirasiga kishilarning to‘liq moslashishi sodir bo‘lmay turib, ularning inkor qilinishi va o‘rniga yana yangi me’yorlarni taklif etilishi singari beqarorliklarni keltirib chiqaradi. Bunda kishilarning ijtimoiy makonda o‘z mo‘ljallarini to‘g‘ri shakllantirish, ijtimoiy adaptatsiya, moslashish, ushbu jarayonlarni o‘zida aks ettirgan relevantlik bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Mavzuimizning dolzarblik darajasi O‘zbekiston bugungi kunda ana shunday o‘zgarilar davrini boshdan kechirayotganligini hisobga olsak yanada oshadi.

Ushbu paragrafimizda tafakkurning shaxs ijtimoiylashuv jarayonidagi o‘rni, shaxsning ijtimoiy munosabatlar doirasida o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy mo‘ljallarini to‘g‘ri belgilashi va xatti-harakatidagi adekvatlilik darajasini belgilab beruvchi relevantlik masalalarini sinergetik nuqtai nazardan, tizimli tahlil qilishga harakat qilganmiz.

Dissertatsiyaning birinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

birinchidan, inson tuzilmalar orasida eng murakkabi bo‘lib, biologik, ruhiy-ma’naviy, ijtimoiy jihatlarining bir butunligidan tashkil topgan; *ikkinchidan*, inson tafakkurining shakllanishi murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unga bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar ta’sir o‘tkazadi; *uchinchidan*, Inson tafakkuri inson ma’naviy borlig‘ida xaosdan tartibot tomon harakatlanishni ta’minlaydi. Zero, bilimsizlik xaosning bir ko‘rinishi bo‘ladigan bo‘lsa, tafakkur jarayonida inson

bilimsizlikdan bilish tomon boradi, tartibsizlik o‘rniga tartibot o‘rnatila boshlaydi; to‘rtinchidan, Inson tafakkuri inson ma‘naviy borlig‘ida nochiziqlikni keltirib chiqaradi. Nochiziqlik tafakkurning betakrorligining, kreativligining, ijodkorligining asosi bo‘ladi; beshinchidan, insoniyat tarixi bu, tafakkur tarixidan o‘zga narsa emas. Chunki inson tafakkuri natijasida oddiylikdan murakkablikka, narsa va hodisalarni shaklan va mohiyatan takomillashtirishga tomon harakatlangan; oltinchidan, insonning bilmaslikdan bilish tomon harakatlanishini sinergetik tadqiq etishga barcha sabablar mavjud, chunki bilmaslikdan bilish tomon harakatlanish tartibsizlikdan tartibot tomon harakatlanishni nazarda tutadi. Bu esa sinergetik jarayondir.

“Tafakkurning ontologik va gnoseologik mohiyati” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida inson tafakkurini murakkab sistemalarni tahlil qilishning eng samarali metodi – sinergetik metod orqali tahlil etishga harakat qilamiz. Sinergetikaning asoschilaridan biri bo‘lgan German Xaken, sinergetika o‘rganadigan murakkab sistemalarga quyidagi jihatlar xos deb ta‘kidlaydi: “1. Ushbu tizimlar bir nechta o‘zaro aloqadorlikdagi qismlarga iborat; 2. Tizimda tuzilmalar xaotik yoki tartiblashgan bo‘lishi mumkin; 3. Bu tizimlar ichki va tashqi ta‘sirga ega; 4. Tizimlarda barqarorlik yoki beqarorlik holatlari bo‘lishi mumkin; 5. Tizimda sifatli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, bu o‘zgarishlarni ichki va tashqi ta‘sir keltirib chiqaradi; 6. Bu tizimlar nochiziqlikdir”.²⁰ Xaken ko‘rsatib o‘tgan ushbu jihatlarning barchasi murakkab tizim bo‘lmish inson tafakkuriga ham xos deb hisoblaymiz.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi **“Barqarorlik va beqarorlikning tafakkur hodisasida namoyon bo‘lishi”** deb nomlangan. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarga, ushbu munosabatlarning harakatlantiruvchisi bo‘lgan insonga munosabat o‘zgarib bormoqda. Inson muammosiga, uning tafakkur tarziga yangicha yondashuvni shakllantirayotgan yo‘nalishlardan biri, hech shubhasiz sinergetikadir. “Sinergetika o‘z-o‘zini tashkillashtirish va murakkablik haqidagi umumiy nazariya sifatida insonga nisbatan yangicha munosabatni shakllantiradi va yangi dunyoqarash yo‘nalishi rolini o‘ynaydi”.²¹ Inson tafakkurining o‘z-o‘zini tashkillashtirish, o‘z-o‘zini boshqarishi, jamiyatning o‘z-o‘zini boshqarishining asosini tashkil etadi. Ushbu bobda insonning o‘z-o‘zini boshqarishi bilan bir qatorda, tizim sifatida o‘z-o‘zini emirishi, o‘z-o‘zini inqirozga etaklashi ham mumkinligini ilmiy asoslashga harakat qilamiz. O.A.Andreyevaning ta‘kidlashicha, “Inson sistema tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorligidan tashkil topgan, unga nochiziqlik, ochiqlik, ichki va tashqi tebranishlar, baqarorlik holatidan beqarorlikka va aksincha beqarorlikdan barqarorlikka o‘tish, doimiy sifat o‘zgarishlar kabi sifatlar xosdir”.²²

Ye.N. Knyazeva “Sinergetik fikrlash - dialektik fikrlash demakdir” deb nomlangan asarida, “Beqarorlik, barqarorlik va dinamik rivojlanishning sharti bo‘lishi ham mumkin. Nomuvozanatli, beqaror holatdagi sistemalargina spontan

²⁰ Хакен Г. Синергетика. Наука, М.: 1986. - С. 67.

²¹ Баранцев Р.В Имманентные проблемы синергетики// Вопросы философии. - Москва: 2002.. №9. – С. 179.

²² Стабильность и нестабильность в контексте социокультурного развития. Ростов на Дону.: 2002.- С. 46.

tarzda o‘z-o‘zini tashkillash-tirish va rivojlantirishga qodir bo‘ladilar. Barqarorlik va muvozanat holati evolyusiyaning so‘nggi nuqtasidir, chunki sistema barqarorlik holatiga erishganidan so‘ng unda muvozanat va turg‘unlik holati boshlanadi. Turg‘unlik esa sistemaning rivojlanish va taraqqiyotdan to‘xtab qolishiga va ichki emirilishning boshlanishiga olib keladi”.²³ Inson tafakkuri ham murakkab sistemalarga xos bo‘lgan anashunday nochiziqli dinamik harakatni boshdan kechiradi. Tizimdagi nochiziqlilik mexanizmini bifurkatsiya jarayoni ta‘minlab beradi. Barqaror yoki beqaror holatning so‘nggi nuqtasi bifurkatsiya jarayoni hisoblanadi. Bifurkatsiya inglizcha so‘z bo‘lib, “sanchqi” degan ma‘noni bildiradi. Bifurkatsiya holatida sistemaning keyingi taraqqiyoti sanchqi ko‘rinishidagi taraqqiyot diagrammasi ko‘rinishida bo‘ladi, ya‘ni sistema oldida bir necha yo‘llar paydo bo‘ladi. Rus olimi V. Vasilkovaning fikricha, ushbu vaziyat sayohatchining yo‘lida paydo bo‘lgan uchta yo‘l kesishmasini eslatadi va bunda uchta yo‘ldan birini tanlashga to‘g‘ri keladi.²⁴ Bifurkatsiya nuqtasida sistema keyingi taraqqiyoti uchun variantlardan birini tanlashiga to‘g‘ri keladi va anashu nuqtada sistemada sifatiiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Anashu sifatiiy o‘zgarishlarning manfiy yoki musbat bo‘lishi sistemaning keyingi taraqqiyotini belgilab beradi. Bundan tashqari sistemaning bifurkatsiyaga uchrashiga qadar bo‘lgan holati, bifurkatsiyaga qay yo‘l bilan tushganligi ham sistemaning keyingi taraqqiyotiga ta‘sir o‘tkazadi.

Bundan tashqari ushbu bobning **“Chiziqli va nochiziqli tafakkur jarayonining ontologik va epistemiologik mohiyati”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida inson tafakkurining nochiziqlilik jihatlarini falsafiy tahlil qilamiz. Chiziqlilik va nochiziqlilik ijtimoiy jarayonlar dinamikasining, harakatining xarakteristikasi hisoblanadi. Tafakkurni sinergetik nuqtai nazardan tahlil qilar ekanmiz, undagi nochiziqlilik jihatlarini alohida ko‘rib chiqishimiz lozim deb o‘ylaymiz, chunki nochiziqlilik, murakkab ochiq sistemalarning ajralmas xossasi hisoblanadi. Insonning murakkab ichki olamining betakror bo‘lib shakllanishida, o‘ziga xosligi va takrorlanmasligida nochiziqlilikning o‘rni katta deb hisoblaymiz va ushbu ilmiy ishimizda o‘z fikrimizni ilmiy asoslab berishga harakat qilamiz. Chiziqlilik – bir tomonlama harakatlanish, bir yo‘nalishga ega bo‘lishni anglatadi. Oldindan belgilangan yo‘nalish bo‘ylab harakatlanish, muqobil variantlarga yo‘l qo‘yilmagan holda harakatni amalga oshirish, chiziqlilik hisoblanadi. Chiziqli harakatning asosida yagona ibtido, substansiya, yagona reallik turadi.

Umuman olganda, noklassik fanga qadar fanda chiziqli tafakkur tarzi ustivorlik qilgan. Noklassik va postnoklassik fanda uning o‘rnini nochiziqlilik egalladi. Nochiziqlilik atamasi dastlab matematikada qo‘llanilgan bo‘lib, matematikadagi nomuvozanatli matematik tenglamalar bilan ishlashda foydalanilgan. Bunday tenglamalar noaniq miqiyos va ko‘lamga ega bo‘lgan, masalan, samoviy jismlar mexanikasi, radioto‘lqinlar harakatida qo‘llanilgan. Nochiziqlilik – ijtimoiy munosabatlarning ko‘p variantlarda rivojlanish

²³ Князева Е.Н. Мыслить синергетически - значить мыслить диалектически. // Актуальные вопросы диалектики. М.: 2000. С. 113.

²⁴ Василькова В. Синергетика и теория социальной самоорганизации. С.-Петербург, 1999. - С. 269.

imkoniyatini e'tirof etishdir. Bunda ijtimoiy ob'ekt polimorfik xarakter kasb etadi: universal, yagona sistema mavjud bo'lishi inkor etiladi. Har qanday hodisa, jarayon va holatda nisbiylik borligi e'tirof etiladi. Faoliyat va harakat davomida sistemaning holati, maqsadi o'sib, o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Sistema va uni o'rab turgan muhit o'rtasida qat'iy chegaralar qo'yilmaydi. Tasodiflarga, imkoniyatlarga yo'l qo'yiladi. Boshqacha qilib aytganda, nochiziqlilik bu – ko'pvariantlilikdir. Nochiziqlilik – sinergetikaning markaziy muammolaridan biridir, chunki sinergetika, nochiziqli murakkab sistemalar bilan ish ko'radi va borliqning o'z-o'zini erkin ishlab chiqarish va o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonining mahsuli deb ta'kidlaydi. Nochiziqlilik tizimda bir vaqtning o'zida bir nechta imkoniy variantlarning yashirin holatda, imkoniy borliq holatida mavjud bo'lishini ham taqozo etadi, ya'ni tizim bir holatda bo'lgan paytda, sharoit o'zgarishi va undagi yashirin holatlarning yuzaga chiqishi uchun qulay imkoniyat tug'ilgan vaqtda yangi holatlar namoyon bo'lishi mumkin. “Sinergetikaning markaziy muammolaridan biri – nochiziqlilik bo'lib, nochiziqlilik hamma joyda mavjud, hamma erga singuvchi, ko'p ko'rinishli va cheksiz xilma-xillikni anglatadi”.²⁵ Tafakkur dissipativ struktura sifatida nochiziqli mohiyatga ega.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi **“Tafakkurning o'z-o'zini tashkillashtiruvchi dissipativ sistema sifatidagi tahlili”** deb nomlangan. Dastlab, o'z-o'zini tashkillashtirish tushunchasining mazmunini ko'rib o'tadigan bo'lsak, “ushbu tushunchani fanda birinchi bo'lib, Ervin Shredinger 1944 yilda “Fizika nuqtai nazaridan hayot nima?” deb nomlangan asarida qo'llagan”. Dastlab tabiiy fanlar sohasida, xususan, fizikada, kimyo sohaslarida qo'llanilgan ushbu konsepsiya bugungi kunda ijtimoiy fanlar sohasida ham ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunga kelib esa, sinergetika inson tabiatini, tafakkur tarzini, jamiyatni va insonning o'z-o'zini anglashini tadqiq qilishning yangi yo'nalishi sifatida rivojlanib bormoqda. O'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmlari va o'z-o'zini tashkillashtirishni namoyon bo'lishining yangi metodlarini taklif qilmoqda. O'z-o'zini tashkillashtirish – murakkab sistemalardagi o'z ichki strukturasi spontan tartiblashtirish qobiliyatidir. “Tashkillash xossasining manbai yoki harakatlantiruvchi kuchi tizimning o'zida bo'lsa, bu xossa struktura va funktsiya holatining parametrlarini o'zgartirish hisobidan muhitga moslashish xislatini yuzaga keltirsa, unday tizim o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimga aylanadi”.²⁶ O'z-o'zini tashkillashtirish, tizimda o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha elementlarning mavjud bo'lishi sharti bilangina amal qilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu elementlar harakati bir-birga ta'sir o'tkazishi lozim. O'z-o'zini tashkillashtirish jarayonining asosida dissipativlik yotadi.

Dissipatsiya lot. dissipatus — tarqalib ketgan, sochilib ketgan, deb tarjima qilinadi. Harakat davomida to'la mexanik energiyasi, ya'ni kinetik va potensial energiyalar yig'indisi uzluksiz kamaya borib, boshqa turdagi energiya shakllariga,

²⁵ Бозоров Д. Сinergetик парадигма. Т.: Тафаккур, 2010. Б. 53.

²⁶ Қўшоқов Ш.С. Табиатшунослик фалсафаси. - СамДУ, 2004. - Б.157

masalan, issiqlik, nurlanish va energiyaga aylana boradigan dinamik sistemalarga dissipativ sistema deyiladi. Dissipativlik tushunchasi bir tomonga yo'nalmagan, yoyilgan, tarqalgan, degan ma'nolarni anglatadi. O'z-o'zini tashkillashtirish tizim taraqqiyotini, yangi sifatli holatga o'tishini taqozo etadi.

Tafakkurga sinergetik yondashuv, tafakkurning tabiiy jihatlarini va ijtimoiy – ma'naviy, ruhiy jihatlarini o'rganuvchi fanlarning hamkorlikda berayotgan xulosalariga tayanadi. O'z-o'zini tashkillashtirish tushunchasi ham shu jumladandir. Sinergetika o'z-o'zini tashkillashtirishning qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganar ekan, xaosdan tartibotga o'tishni o'z-o'zini tashkillashtirishning asosini tashkil etishiga urg'u beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi bo'yicha quyidagi xulosalar yoritilgan:

birinchidan, barqarorlik va beqarorlik dialektikasi inson tafakkurining garmoniyasini va dinamik rivojini ta'minlaydi, ular o'rtasidagi aloqadorlik insonning bilish jarayoni mexanizmlari uchun ichki harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi; *ikkinchidan*, nochiziqlilik, inson tafakkurining o'z-o'zini rivojlantirishi, o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini tashkillashtirishi jarayonining mahsuli deb hisoblaymiz, chunki insonning yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlari individual kechadi. Inson bilishining nochizikli shakllanishi va rivojlanishining asosida inson tafakkurining erkinligi yotadi. Inson erkin mavjudlik ekan, u har doim tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu tanlov uning istalgan hayotiy vaziyatda turli variantlardan birini tanlashi, ya'ni nochizikli harakat dinamikasiga ega bo'lishi bilan ifodalanadi. Demak, inson ushbu tanlovida mas'uliyat bilan ish ko'rishi, uning o'z-o'ziga, jamiyatga, tabiatga oqilona munosabatini keltirib chiqaradi; *uchinchidan*, inson bilish jarayonidagi o'z-o'zini tashkillashtirish, tartibsizlikdan tartibot kelib chiqadi. Inson bilmaslikdan bilish tomon, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish tomon boradi.

Bugungi kunda inson, nafaqat o'z-o'zini tashkillashtiruvchi, balki o'z-o'zini emiruvchi mavjudlik sifatida ham o'zini namoyon etmoqda. Inson sivilizatsiyaning shunday bosqichiga etib keldiki, u o'z mohiyatiga qarshi chiqa boshladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Falsafa tarixida tafakkurga sinergetik yondashuv elementlari”** deb nomlangan. Falsafa har bir tarixiy davrda jamiyatda kuchayib borayotgan holatlar, jamiyatni harakatlantiruvchi omillarning inson hayotiga, taqdiri, kelajagiga, insonning bir butun mavjudlik tizimiga va mohiyatiga qay daraja ta'sir o'tkazishini o'rganadi. Falsafaning ushbu vazifasidan kelib chiqqan holda, sharq falasafasida ham g'arb falsafasida ham inson, uning ichki olami, ma'naviy borlig'ining mohiyati xususida turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan. Tadqiqot mavzuidan kelib chiqqan holda, ushbu bobimizda falsafa tarixida inson xususidagi, uning tafakkur tarzi va bilish imkoniyatlari haqidagi qarashlarda sinergetika elementlarining namoyon bo'lishini ilmiy asoslashga harakat qilamiz.

Xususan, **“Ajdodlarimizning olamni bilish haqidagi qarashlarida nochiziqlilik va sinergetika elementlarining namoyon bo'lishi”** deb nomlangan birinchi paragrafimizda sharq falsafasida, ajdodlarimizning olamni bilish haqidagi

qarashlarida nochiziqlilik va sinergetika elementlarining namoyon bo'lishi, inson tafakkuri va bilish qobiliyatiga oid qarashlarning sinergetik mazmuniga to'xtalib o'tamiz. Bunda falsafamizning chuqur ildizga murojaat etib, Avestodagi inson ma'naviy olami, tafakkuri haqidagi qarashlarda sinergetika elementlarining namoyon bo'lishini ilmiy asoslashga harakat qilamiz. "Dualizm, ruh va moddiy hayotning o'zaro uyg'unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko'ra, butun olam yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o'rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosida qurilgan".²⁷ Avestoda e'tirof etilgan moddiylik va ruhiyat uyg'unligi g'oyasi, sinergetikaning mazmunini tashkil etuvchi va lug'aviy ma'nosini aks ettiruvchi hamkorlik, g'oyasini aks ettiradi. Ya'ni, moddiylik va ruhiyat hamkorlikda, uyg'unlikda inson hayotini bir butun borliq sifatida tashkil etishini Avesto ham e'tirof etadi. Avestoning yana bir g'oyasi, sifatida ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, bu kurashda goh ezgulikning, goh yovuzlikning qo'li baland kelishi e'tirof etiladi. Ushbu g'oyalarda ham sinergetika bilan uyg'unlikni kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, murakkab tizimlarda doimiy tarzda tartibsizlikdan tartibotga va aksincha tartibotdan xaosga o'tib turilishi ta'kidlanadi. Barqarorlik va beqarorlik o'rtasidagi aloqadorlikni ham ushbu g'oya asosida ko'rib chiqishimiz mumkin. Bundan tashqari, fan va falsafamiz tarixidagi eng rivojlangan o'rta asrlar falsafasi namoyondalari, imom al Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Jaloliddin Rumiy, Amir Temurlarning inson tafakkur tarzi xususidagi qarashlarining sinergetik mazmunini aniqlashga harakat qilamiz.

Bundan tashqari ushbu bobimizning "**Islom falsafasida tafakkurning sinergetik mazmuni**" deb nomlangan ikkinchi paragrafida falsafiy merosimizning eng kam o'rganilgan, hali ko'p jihatlari umuman ochilmagan diniy falsafamiz, xususan muxaddislik va tasavvuf ta'limotida inson tafakkurining va bilish qobiliyatining sinergetika elementlari bilan mos keluvchi jihatlarni falsafiy tadqiq etishga harakat qilamiz. Zero, islom dinining ilm ma'rifatga hayrixoh va ilmni ibodat darajasida ulug'lovchi din sifatidagi ideologik jihatlarni o'rganish bugungi kunning ilmiy zaruratlaridan biridir. Tasavvuf, mazmun mohiyatiga ko'ra sinergetik qadr qimmatga ega bo'lgan ta'limotdir. Xususan, tasavvuf ta'limoti insonni haqqa, kamolotga erishishining to'rt bosqichi (shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat)ni sistema, bir butun tizim sifatida e'tirof etgan va rivojlantirgan. Shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz xaqiqat yo'qligi haqida ta'lim berib, tasavvuf ilmni yong'oqqa, uning bosqichlarini yong'oqning po'sti, po'chog'i, po'choq ichidagi pardasi va mag'ziga o'xshatgan. Bunda mag'iz yong'oqning po'sti, po'chog'i, ichki pardasi olingandan keyin ko'ringani kabi haqiqat, (Alloh vasli)ga shariat, tariqat, ma'rifat orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Shu sababdan islom falsafasi, xususan tasavvuf va muxaddislar qarashlarida sinergetika elementlarining namoyon bo'lishi masalalarini falsafiy tahlilini amalga oshirishga harakat qilingan.

²⁷ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т.: Ғафур Ғулом. 2013. - Б. 6

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi **“Hayot falsafasi vakillarining gnoseologik ta’limotida ratsionallik va noratsionallikning o‘zaro nisbati (sinergetika nuqtai nazaridan)”** deb nomlangan. Bunda, inson tafakkuri, ratsionallik va irratsionallik masalalari falsafaning markaziy muammosiga aylangan XX asr falsafasida inson bilishi va tafakkur tarzi masalasida sinergetik yondashuv elementlarini tahlil qilamiz. Bunda F. Nisshe, Z.Freyd, E. Fromm, pragmatizm, fenomenologiya, ekzistensializm falsafasiga murojaat etamiz. Asosiy maqsadimiz, sinergetika XX asrga kelib ilmiy-falsafiy kategoriyaga, metodologiyaga aylangan bo‘lsada, uning elementlari ancha ilgariroq davr falsafiy qarashlarida ham mavjud bo‘lganligini asoslab berishdir. Bundan tashqari ushbu bobda XXI asr falsafasida gnoseologiya va ratsionalizm muammosida vujudga kelgan muammolar, tobora avj olib borayotgan nihilizm va inson muammosi masalalarida g‘arb olamida paydo bo‘layotgan degradativ holatlar, insonning ruhiy-ma’naviy o‘z-o‘ziga begonalashuvi masalalari, ushbu holatning bizga kirib kelishining oldini olish choralari xususidagi fikrlarimizni ilgari suramiz. Chunki, inson murakkab tizim sifatida faqat o‘z-o‘zini tashkillashtirishi emas, balki o‘z-o‘zini yemirishi ham mumkinligini falsafiy asoslashga harakat qilamiz.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalar bayon etilgan:

birinchidan, insoniyat ma’naviy merosining eng qadimiy va noyob yodgorliklaridan biri Avesto kitobida ajdodlarimizning teran, noan’anaviy, murakkab va tizimli tafakkur tarziga va sinergetik yondashuv elementlariga boy bo‘lgan qarashlar asosida olam va borliqning substansional jihatlarini anglashga va izohlashga harakat qilishgan; *ikkinchidan*, islom falsafasi, xususan tasavvuf va muxaddislar qarashlarida sinergetika elementlari ko‘plab uchraydi; *uchinchidan*, XX asrda g‘arb falsafasida insonning ham ratsional ham irratsional bilish qobiliyati turlicha talqin ostida o‘rganilib informatsiya shaxs va jamiyatning rivojlanishi, beqarorlikdan barqarorlikka va aksincha, barqarorlikdan beqarorlikka o‘tishini, inson ichki ma’naviy dunyosida tartibsizlikdan tartibotga, masalan, bilimsizlikdan ilmu ma’rifat sari, shu bilan birga, tartibotdan kaosga tomon o‘tishini, masalan, buzg‘inchi, vayronkor g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“O‘zbekistonda kreativ tafakkur va innovatsiya muammolarining sinergetik yechimi”** deb nomlangan. Hammamizga yaxshi ma’lumki, har qanday davlat, jamiyat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida inson omili, xususan, shu davlatda yashayotgan insonlarning dunyoqarashi, tafakkuri, ilmiy salohiyati, huquqiy, siyosiy, axloqiy madaniyati, qadriyatlarini mezon, hayotiy prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi **“Tafakkur jarayonida erkinlik va kreativlik masalarining dialektik aloqadorligi”** deb nomlangan bo‘lib, bunda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson, uning mohiyati, yangicha kreativ tafakkur tarzini, erkin ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va innovativ tafakkur sohiblarini qayta tarbiyalash masalalariga yangicha yondashuv shakllanishining falsafiy jihatlarini zamonaviy fan va falsafaning asosiy paradigmasi, sinergetik paradigma asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Bundan tashqari ushbu bobda, jamiyatni erkinlashtirish jarayonining ontologik mohiyatini kishilarda erkin

fikrlash, ijodkorlik va innovatsiyaga intilish jarayonlarini sinergetik aloqadorlik va hamkorlik nazariyasi asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

“Borliq, o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi insondan tashqarida, unga aloqasi bo‘lmagan tarzda sodir bo‘lishi mumkin emas, chunki inson borliqning ichidadir va o‘z-o‘zini tashkillashtirishning yuqori shakllarini o‘zida namoyon etadi”.²⁸ Insonning o‘zo‘zini tashkillashtirishi uchun esa, u birinchi navbatda erkinlikka ega bo‘lishi, erkin jamiyatda, qadr-qimmatini qadriyat darajasida baholanadigan jamiyatda yashashi lozim. Shundagina insonning o‘z-o‘zini tashkillashtirishi, o‘z-o‘zini boshqarishi, jamiyatning o‘z-o‘zini tashkillashtirishi, o‘z-o‘zini boshqarishi darajasiga ko‘tariladi. Erkinlikning ijod orqali shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida ekanligiga e‘tibor qaratsak. Erkinlik tushunchasini ko‘p o‘lchovli, ko‘p qirrali hodisa sifatida o‘rganish, birinchi navbatda, shaxsning faoliyati bilan bog‘liq imkoniyat sifatida erkinlik tushunchasini shakllantirishga imkon beradi, bu inson o‘zini ijodiy qayta ko‘rib chiqishga qodir bo‘lgan shaxsning ma‘naviy yetukligining ma‘lum darajasi va mavjud reallik. Erkinlik o‘zgaruvchanlik, dinamizm va protsessuallik bilan immanentdir. Tarixan ishlab chiqilgan konsepsiyalarni tahlil qilish shuni tasdiqlaydiki, erkinlik haqida "hosil bo‘lgan" narsa sifatida gapirish mumkin emas. Shu bilan birga, erkinlik an‘anaviy ravishda ba‘zi to‘siqlar bilan taqqoslanadi va ularni olib tashlashni anglatadi. Biroq to‘siqlarni olib tashlash yangi to‘siqlarning paydo bo‘lishini anglatadi, shuning uchun erkinlik ufqi doimiy ravishda "uzoqlashadi", erkinlikni erishib bo‘lmaydigan reallikka aylantiradi. Haqiqiy erkinlikni egallashning iloji yo‘qligi, irreal dunyoda erkinlikni izlashga urinishlarni tushuntiradi. Erkinlik, bizning fikrimizcha, inson mohiyatining namoyon bo‘lishi sifatida tushunilishi kerak, aks holda, agar u mohiyatan inchoonga tegishli bo‘lmasa, nima uchun unga muhtojligini tushuntirib bo‘lmaydi. Erkinlik insonda uning ajralmas ichki ruhiy holati sifatida mavjud bo‘lib, biz buni faoliyatni amalga oshirish imkoniyati deb tushunamiz. Erkinlikni o‘zida mujassam etishning usuli bu ijod. Inson ichki ozodlik jarayonidagina o‘zini erkin anglaydi va bu faqat ijodda namoyon bo‘ladi. Ijod jarayonida shaxs o‘z-o‘zini anglashi erkinlikka erishishning mumkin bo‘lgan usullaridan biridir. Bu erkinlikning yetishmasligini yengishga urinishdir, chunki erkinlik shaxsiy subyekt sifatida shaxsiyatni cheklaydigan hamma narsani yengish va haqiqiy individuallikning namoyon bo‘lishidir. Bizning fikrimizcha, ijod erkinlik kategoriyasiga nisbatan eng adekvat korrelyativ kategoriyadir. Ijod ham, erkinlik ham o‘zgaruvchanlik, protseduralilik va faollik atributlari bilan tavsiflanadi. Erkinlikka ijod kerak, ijodga erkinlik kerak.

Ijodning timsoli sifatida erkinlik faqat "shakllanish momentidir", chunki ijodning har bir natijasi, predmetlashtirish, ya‘ni cheklovdir va shuning uchun u "erkin bo‘lmaganlik", erkin emaslikka aylanadi. Shuning uchun erkinlikni tushunish uchun uning ijod bilan dialektik aloqasini hisobga olish kerak, chunki inson uchun erkinlik asosan shu tarzda tushuniladi. Ammo bu inson uchun yetishib bo‘ladigan holatdir, chunki, u mohiyatan insonga xosdir, shuningdek, ijodga

²⁸ Пригожин И. Философия нестабильности // Вопросы философии. 1991. № 6. -С. 46-57.

bo'lgan ehtiyoj: "mavjud bo'lish doimo o'z-o'zidan tashqariga chiqish demakdir". Demak, inson o'z erkinligini ro'yobga chiqarish uchun o'zining ijodiy salohiyatini faollashtirishi kerak. Shu bilan birga, insonning o'z "men"ini qurishi, shaxsiyatini shakllantirishi uchun ham erkinlik, ham ijod zarur.

Ijod erkinlikni qo'lga kiritish usuli sifatida erkinlik kategoriyasi bilan bog'liq bo'lgan kategoriya sifatida qaraladi. Faqat ijod bilan bog'liq holda erkinlik haqiqiy erkinlik bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki ijod voqelik chegaralarini yengib o'tadi. Ijod erkinlik kategoriyasiga nisbatan korrelyativ kategoriyadir, chunki ularga mos keladigan fenomenlar dialektik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, o'zaro bir-birini keltirib chiqaradi. Ijod tashqi olamdagi erkinlikni o'zida mujassam etadi. Erkinlik ijodga aktual voqelik chegaralaridan chiqib, inson o'zini zarurat bo'yinturug'idan xalos qilishga imkon beradi. Ijodda shaxsning individualligi, o'ziga xosligi yaratiladi, chunki u har doim individual bo'lgan yurak, qalb, tajriba orqali o'tadi. Erkinlik xuddi shu funksiyani bajaradi: har bir aniq shaxs uchun zarurdir, garchi tabiatan u universal bo'lsa-da, ijod shaxsiy erkinlikni amalga oshirishga imkon beradi va shu bilan ijodiy qobiliyatni amalga oshirish yo'nalishini belgilaydi. Erkinlik bu potensial insonning o'zini namoyon qilishi, o'zini o'zi anglash imkoniyatidir. Ijodda realizatsiya qilinmasa, erkinlik o'likdir va faqat imkoniyat bo'lib qoladi. Erkinlik ijod uchun imkoniyat va ayni paytda uning natijasidir. Erkinlik va ijodning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun ularning dialektik o'zaro ta'sirini hisobga olish kerak. Shaxsiy erkinlik va ijodning dialektik o'zaro ta'sirida ichki nomuvofiqligiga qaramay, na erkinlik, na ijodkorlik o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi, aksincha, bir-biri orqali namoyon bo'lib, muhim xossalarini ochib berishga yordam beradi. Ijodning qarama-qarshiligida uning ko'p qirraliligi kelib chiqadi, bu uni ichki "boyligi"ning asosidir. Erkinlik ijodga nafaqat uning mavjudligi sharti va imkoniyati sifatida zarur, balki rivojlanish uchun o'ziga xos rag'batdir. Mujassamlanish natijasi bilan qanoatlanmaydigan ijod insonni yangi ijodiy izlanishga undaydi, bu esa erkinlikning yangi "darajasini" talab qiladi. O'z navbatida, erkinlikning ichki nomuvofiqligi, uning amalda erishib bo'lmaydiganligi ijod bilan yengib chiqiladi, chunki u erkinlikni "aniqlaydi", uning nafaqat "cheksizlikda yo'qolishiga", balki "statik holatda muzlashiga" ham yo'l qo'ymaydi. Ijod haqiqatda erkinlikning mavjudligi chegaralarini belgilaydi, lekin uning muhim xususiyatlarini cheklamaydi.

Shunday qilib, ijod orqali erkinlik insonga yaqin bo'lish va shu bilan birga obyektivlik chegaralarini doimiy ravishda yengib o'tish, doimiy rivojlanishda bo'lish imkoniyatini oladi. Erkinlik va ijodning dialektik o'zaro bog'liqligi quyidagicha namoyon bo'ladi: ular bir-birini o'zaro hosil qiladi va o'zaro shartlashadi (erkinlik ijodning namoyon bo'lishiga imkon yaratadi, ijod esa erkinlikning voqelikdagi namoyon bo'lishiga imkon beradi) va shu bilan birga, ularning har biriga qarshi turadi. Ijodiy harakat erkinlikni predmetliliigi bilan cheklaydi, lekin bu zarurdir, chunki u aniq voqelikning imkoniyatlari bilan noaniqlikni belgilaydi. Shu bilan birga, ijodiy harakatni amalga oshirish ijodkorlik erkinligini rivojlantirishga yordam beradi, chunki u yangi bosqichda ijodiy o'zini

o‘zi anglash uchun yangi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida yuqori darajadagi erkinlikni keltirib chiqaradi. Demak, ijodning rivojlanishi, erkinlikning yuqori bosqichga o‘tishi shaxsning o‘z-o‘zini anglashning yangi imkoniyatlaridan dalolat beradi.

To‘rtinchi bobimizning ikkinchi paragrafi **“Insoniyat tarixida sog‘lom tafakkur tarzini shakllantirishda an’ana va innovatsiyaning uyg‘unligi”** deb nomlangan. An’analar bu avloddan avlodga o‘tib, ma’lum jamiyatlarda, ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt saqlanib qolgan ijtimoiy va madaniy meros elementlaridir. An’analar muayyan ijtimoiy institutlar, xulq-atvor normalari, qadriyatlar, g‘oyalar, urfodatlar, marosimlar va boshqalar tazida namoyon bo‘ladi²⁹.

Innovatsiya bu individual-shaxsiy darajada amalga oshiriladigan, ammo keyinchalik omma tomonidan, ma’lum bir jamiyat tomonidan qabul qilinadigan har qanday kashfiyot. Innovatsiyalarning asosiy sharti ularning translyatsiyalanishidir. Aks holda, kashfiyot faqat o‘zi uchun kashfiyot bo‘lib, ijodkor yoki yangilikni qabul qilgan guruh bilan birgalikda yo‘qolib ketadi. Translyatsiya muhitining mavjud bo‘lishi an’analarning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sivilizatsiya, etnos, madaniyatdagi voqealarning umumiy yo‘nalishi darajasi bo‘lishi mumkin. Translyatsiya mahalliy darajada cheklangan bo‘lishi mumkin, bu holda u o‘zgaradi, butun muhitga (sivilizatsiyaga) emas, balki uning faqat ma’lum bir qismiga ta’sir qiladi (etnos yoki subetnos, ijtimoiy qatlam va boshqalar).

Shu bilan birga, yangiliklarning o‘zi madaniy va tarixiy dunyo, inson yashaydigan va ishlaydigan muhit, muammoli fikr harakati maydonini belgilaydigan va cheklaydigan madaniy an’analar, mumkin bo‘lgan yangiliklarning chegaralari va maqsadlari bilan bog‘liq. Innovatsiya tarixiy an’anani yangilash yo‘lidan borishi, ya’ni, davriylikning bir ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Yangilik ko‘pincha individual ong sohasida insonning murakkab madaniy-tarixiy yoki ijtimoiy-madaniy dunyosi (jamoat arbobi, ijtimoiy islohotchi, olim) natijasida paydo bo‘ladi. Ijtimoiy darajada, shaxsdan farqli o‘laroq, innovatsiya madaniy relef, urf-odatlarining “mutatsiyasi”, o‘z madaniyati kodi orqali, xorijiy ta’sirlar orqali o‘zgartirish vazifasini bajaradi. Mutlaqo yangi madaniy an’ana (madaniyat) kamida ikkita parchalangan etnik tizim asosida shakllangan yangi etnik guruh tomonidan beriladi. Madaniy releflarning o‘zaro ta’siri va mutatsiyalari dastlab individual ong sohasida sodir bo‘ladi, so‘ngra jamiyat tomonidan qabul qilinadi yoki qabul qilinmaydi va jamiyat doirasida ularni tarjima qilish mexanizmi yanada rivojlanadi, natijada dunyoqarash an’anasini shakllantiradi. Shunday qilib, yangilik har qanday ijtimoiy tuzilmaning, shu jumladan, sivilizatsiyaning mulkiga aylanishidan oldin, dastlab individual darajada paydo bo‘lishi va shakllanishi kerak. Istisno tariqasida boshqa madaniyatlarning birlashtirilgan (ko‘chirib olingan va o‘z madaniyatiga kiritilgan) tajribasidir.

Bobning uchinchi paragrafi **“Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga (konstruktiv va destuktiv) ta’siri**

²⁹ Большой энциклопедический словарь. Москва. БРЭ. 2002 – С. 488.

(O‘zbekiston sharoitida)” deb nomlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini boshqarish samaradorligi ijtimoiy mafkura, ijtimoiy madaniyat, davlatning ijtimoiy faoliyati, ijtimoiy iqtisodiyot, jamiyatning strategik rivojlanishi, ijtimoiy tizim hamda davlat va jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga olgan bir qator omillarga bog‘liq. Bunda asosiy o‘rinlardan birini ijtimoiy mafkura egallaydi, u jamoat ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, jamiyatni mustahkamlash va davlat tuzilmalari tomonidan oqilona va maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bunday yechimlarning amalga oshirilishi jamiyatning progressiv ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Bu tubdan muhimdir, chunki ijtimoiy (iqtisodiy va siyosiy) rivojlanish global (ichki va tashqi iqtisodiy) rivojlanish bilan bir qatorda barqaror rivojlanish yo‘nalishi va sifatini belgilaydi, natijada mamlakat aholisining turmush darajasi oshadi.

Ijtimoiy mafkuraning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini boshqarish samaradorligiga ta’siri mantig‘ini tushunish XX asrda rivojlangan asosiy zamonaviy mafkuralarning mohiyatini o‘rganishni talab qiladi. Olingan natijalar nafaqat mafkuraning jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini boshqarish to‘g‘risidagi g‘oyalar tizimidagi o‘rnini aniqlashga imkon beradi, balki ijtimoiy mafkura (ijtimoiy determinizm) uyg‘unlashgan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini boshqarishning tizimli modelini shakllantirishga imkon beradi, uning mazmuni jamiyatimizga xos bo‘lgan mentalitet va dunyoqarashni eng aniq aks ettiradi.

XULOSA

“Tafakkurning dissipativ struktura sifatidagi sinergetik tahlili” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Inson tafakkuri mavjud polistrukturaviy tuzilmalar orasida eng murakkabi bo‘lib, biologik, ruhiy-ma’naviy, ijtimoiy jihatlarining bir butunligidan tashkil topgan. Inson tafakkur tarzining shakllanishi murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unga bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sir o‘tkazadi. Inson tafakkurining bir qator atributiv xossalari mavjud. Erkinlik, ijodkorlik, inson tafakkurining ajralmas xossalari bo‘lib, ular inson hayoti va faoliyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Inson ijodkorligi, erkinligi insoniyatga faqat ijobiy natija emas, salbiy oqibatlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu natija insonning hayotiy prinsiplari, qadriyat mo‘ljallariga bog‘liqdir;

2. Tafakkur insonning o‘z-o‘zini tashkillashtirishining asosidir. Insonning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, o‘z-o‘zini tashkillashtirishi, insonning ongli faoliyati asosida kechadi. Inson tafakkuri bugun va kelajakni bir-biri bilan bog‘lovchi hodisadir, chunki inson bugungi kunga qarab kelajakni tasavvur eta oladi, bugun borliqda mavjud holatlar, belgilar asosida kelajakni bashorat qiladi. Buning natijasida insonda o‘z-o‘zini himoyalash imkoniyati paydo bo‘ladi;

3. Inson murakkab va ochiq sistema ekan, ochiq va murakkab sistemalarga xos bo'lgan barqarorlik va beqarorlik holatlari inson tafakkuri va bilish jarayoniga ham xosdir. Beqarorlik holatida jamiyatda va inson ma'naviy borlig'ida etilib kelgan muammolar ko'zga tashlana boshlaydi. Lekin ushbu holatga odatiy hol, taraqqiyotning normal harakati sifatida qarash, sinergetikaning e'tirofi hisoblanadi. Barqarorlik va beqarorlik doimiy ravishda dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Tizim abadiy barqarorlikda yoki abadiy beqarorlik holatida ham bo'lishi mumkin emas, chunki barqarorlik va beqarorlik elementlarining o'zaro aloqadorligi, taraqqiyotning ichki manbai, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning aloqadorligisiz tizimda xaos yuz beradi;

4. Inson tafakkurining yana bir sinergetik jihati unda nochiziqlik prinsipining amal qilishidir, chunki murakkab va ochiq sistemalarning shakllanishi, mavjudligi va rivojlanishi, nochiziqlik asosida kechadi. Nochiziqlik murakkab ochiq sistemalarning ajralmas xossasi hisoblanadi. Inson murakkab ichki olamining betakror bo'lib shakllanishida, o'ziga xosligi va betakrorligida nochiziqlikning o'rnini katta deb hisoblaymiz. Har bir inson o'ziga xos takrorlanmas ichki olamga, ma'naviy borliqqa ega va ushbu holat tizim sifatida shakllanuvchi inson ma'naviy borlig'ining betakror, nochiziq shakllanganligidan dalolat beradi;

5. O'z-o'zini tashkillashtirish – murakkab sistemalardagi o'z ichki strukturasi spontan tartiblashtirish qobiliyatidir. O'z-o'zini tashkillashtirish, tizimning tashqi ta'sirlarsiz, o'z ichki harakatlantiruvchi kuchi orqali tizimda tartibot, muvozanat holatining shakllanishidir. O'z-o'zini tashkillashtirish tizimda o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha elementlarning mavjud bo'lishi sharti bilangina amal qilishi mumkin. Xususan, inson tafakkurida o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmining yuzaga kelishi, tafakkur jarayonidagi ijodkorlik va erkinlik orqali amalga oshadi;

6. Bugungi kunda inson, nafaqat o'z-o'zini tashkillashtiruvchi, balki o'z-o'zini yemiruvchi mavjudlik sifatida ham o'zini namoyon etmoqda. Inson, sivilizatsiyaning shunay bosqichiga yetib keldiki, u o'z mohiyatiga qarshi chiqib boshladi. Bunga misol sifatida insonning o'z jinsini o'zgartirishi, gomoseksualizm, ijtimoiylashuvni inkor etuvchi submadaniyatlar, gotlar, emolar, satanistlar kabi inson ma'naviy borlig'ining buzilgan holatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Inson erkinligining noto'g'ri qabul qilinishi, insonning o'z qadriyatlari tizimini jamiyat qadriyatlar tizimidan ustun qo'yishi, jamiyatning axloqiy, madaniy tizimiga putur etkazayotganligini kuzatishimiz mumkin;

7. Informatsion jamiyat mazmuniga ko'ra ochiq jamiyatdir, demak ushbu jamiyatda, jamiyatning ma'naviy muhitiga, shu jumladan insonning tafakkur tarziga tashqi ta'sirlar oshib boradi. Informatsion jamiyatning inson tafakkuriga, mavjudlik mohiyatiga, hayot tizimiga ta'sirining ijtimoiy, axloqiy, ruhiy va aksiologik jihatlari mavjudki, ularni o'z vaqtida anglamaslik, to'g'ri baholay olmaslik, zarur profilaktik chora - tadbirlar tizimini ishlab chiqmaslik, jamiyat ma'naviy tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aynan tizimli yondashuv ushbu muammoning eng to'g'ri echimi deb hisoblaymiz, chunki ushbu

muammoning o'zi ham bir necha jihatlarini o'zida qamrab olgan tizimli muammodir;

8. Inson tafakkuri inson ma'naviy borlig'ida xaosdan tartibot tomon harakatlanishni ta'minlaydi. Zero, bilimsizlik xaosning bir ko'rinishi bo'ladigan bo'lsa, tafakkur jarayonida inson bilimsizlikdan bilish tomon boradi, tartibsizlik o'rniga tartibot o'rnatila boshlaydi. Inson tafakkuri inson ma'naviy borlig'ida nochiziqlikni keltirib chiqaradi. Nochiziqlik tafakkurning betakrorligining, kreativligining, ijodkorligining asosi bo'ladi;

9. Insoniyat ma'naviy merosining eng qadimiy va noyob yodgorliklaridan biri Avesto kitobida ajdodlarimizning teran, noan'anaviy, murakkab va tizimli tafakkur tarziga va sinergetik yondashuv elementlariga boy bo'lgan qarashlar asosida olam va borliqning substansional jihatlarini anglashga va izohlashga harakat qilishgan;

10. XX asrda g'arb falsafasida insonning ham ratsional ham irratsional bilish qobiliyati turlicha talqin ostida o'rganilib informatsiya shaxs va jamiyatning rivojlanishi, beqarorlikdan barqarorlikka va aksincha, barqarorlikdan beqarorlikka o'tishini, inson ichki ma'naviy dunyosida tartibsizlikdan tartibotga, masalan, bilimsizlikdan ilmu ma'rifat sari, shu bilan birga, tartibotdan xaosga tomon o'tishini, masalan, buzg'inchi, vayronkor g'oyalar ta'siriga tushib qolishi ehtimolini keltirib chiqaradi;

11. Barqarorlik va beqarorlik dialektikasi inson tafakkurining garmoniyasini va dinamik rivojini ta'minlaydi, ular o'rtasidagi aloqadorlik insonning bilish jarayoni mexanizmlari uchun ichki harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi;

12. Nochiziqlik, inson tafakkurining o'z-o'zini rivojlantirishi, o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini tashkillashtirishi jarayonining mahsuli deb hisoblaymiz, chunki insonning yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlari individual kechadi. Inson bilishining nochizikli shakllanishi va rivojlanishining asosida inson tafakkurining erkinligi yotadi. Inson erkin mavjudlik ekan, u har doim tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu xulosalar asosida dissertatsiya natijalaridan foydalanish bo'yicha quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqilgan:

birinchidan, ta'limning barcha bosqichlarida tizimli tafakkur tarzini shakllantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;

ikkinchidan, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limida yoshlarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga, o'quvchilarda o'qish, texnologik ko'nikmalar, muhandislik, san'at, matematik mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlanishni birgalikda olib borishga yordam beradigan STEAM texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish va uni ommalashtirish;

uchinchidan, ixtisosligidan qat'iy nazar barcha oliy o'quv yurtlarida mantiq fanini o'qitishni yo'lga qo'yish va uni o'qitish metodlarini takomillashtirish orqali yoshlarning to'g'ri tafakkur yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish;

to'rtinchidan, nochizikli tafakkur tarzini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli virtual kontentlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish;

beshinchidan, yoshlarning innovatsion g'oyalari, startuplarini qo'llab quvvatlash maqsadida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

oltinchidan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ijodkorlikni, kreativlikni o'sishiga xizmat qiladigan intellektual va ko'ngilochar kontentlar hajmini oshirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

МУМИНОВА ЗАРИФА ОДИЛОВНА

**СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЫШЛЕНИЯ КАК
ДИССИПАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ**

09.00.01 – Онтология, гносеология и логика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (DSc)
ПО ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером B2022.4.DSc/Fal146.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русский, узбекский, английский (резюме)) на веб-странице www.samdu.uz, по адресу (www.ziyonet.uz) информационно-образовательного портала «Ziyonet».

Научный консультант:

Тураев Бахтиёр Оманович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Артыков Туланбой Артыкович
доктор философских наук, профессор

Гаффарова Гульчехра Гуламжановна
доктор философских наук, профессор

Салимов Бахриддин Луфуллоевич
доктор философских наук, доцент

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2024 года в _____ часов на основе Научного совета заседания DSc.03/30.12.2019.F.02.02 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, проспект Университетская, 15. Тел: (8366) 235-19-38, 239-64-90; факс: (8366) 231-1586, (8366) 235-27-24; e-mail: rektor@samdu.uz Здание факультет истории при Самаркандский государственный университете имени Шарофа Рашидова, 1-этаж, 105-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за №98). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел: (8366) 235-19-38, 235-64-90; факс: (0366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года.
(Протокол реестра № ____ от « ____ » _____ 2024 года).

Ш.Ш.Негматова

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук ((DSc), доцент

А.Р.Самадов

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук ((DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире происходящая динамика геоэкономических, геоидеологических, демографических, технократических, информационных, гуманитарных процессов, объясняется диалектической и синергетической природой человеческого мышления, т.е. определяется ее изменяющейся, развивающейся, сложной, нелинейной и хаотичной природой. Это обусловлено, с одной стороны, синергетической флуктуацией в мышлении человека (явлениями, связанными с потребностями и интересами человека, многообразием и универсальностью системы ценностей), а с другой - сложной и полифункциональной сущностью познавательной деятельности человека. Вместе с тем, происходящие сегодня в мире высокоскоростные глобальные изменения требуют более глубокого проникновения в сущность феномена мышления, который считается как единственным способом контроля, так и основным механизмом, управляющим человеком, влияющим на будущее человека и всего сущего. Исходя из этого, усиливается необходимость системного подхода к стилю мышления человека как сложной системы, эффективного использования принципов синергетической методологии (нелинейности, самоорганизации, устойчивости и неустойчивости, хаоса и порядка) в процессе его изучения психофизиологических механизмов.

В мировой науке ведутся значительные исследования по изучению синергетических свойств проблем, связанных со стилем мышления человека. В частности, в исследованиях мышления проводится широкий спектр научно-теоретических, философских, прикладных исследований, направленных на изучение сложной, нелинейной системы, как основы рациональной деятельности человека и важной силы, управляющей социальными системами, а также на синергетический анализ. Особое внимание на сегодняшний день уделяется проблемам обесценивания (девальвации) духовной сущности человека в исследованиях, проводимых в ведущих научно-исследовательских центрах Европы и США. Однако на основе синергетического подхода к мышлению человека можно понять его внутреннюю сущность и выявить механизмы самоорганизации, лежащие в основе неустойчивых, бифуркативных, хаотических состояний в нем. Вместе с тем объективной необходимостью в решении этих проблем становится философско-методологический анализ системы мышления, являющейся важным структурным элементом человеческого бытия, экзистенциальной сущности и стиля жизни, на основе достижений современной науки.

В нашей стране проводимые масштабные реформы, направлены на реализацию человеческого достоинства, свободы, комфортного стиля жизни, личной неприкосновенности, возможностей и способностей. Именно на пути практики цели, то есть рационального формирования стиля мышления человека, правильного направления его познавательных возможностей, вырабатываются все конструктивные механизмы. Ведь формирование

потенциальных молодых кадров, инновационных и креативно мыслящих специалистов, создающих современные научные направления и технологии, вооружение их концептуальными идеями, интеграционными проектами, отвечающими требованиям все более бурно развивающегося мира, поднимается на уровень государственной политики. «Разработка эффективных, креативных и инновационных методов организации агитационно-пропагандистской работы и принятие мер по их своевременной реализации... стратегия и механизмы инновационного развития нашей страны тесно связаны, прежде всего, с тем, насколько эффективно используется интеллектуальный и научно-технический потенциал, созданный в этом государстве». ³⁰ Реализация этих задач формирует методологию, основанную на системном подходе к человеческому фактору, который является составной частью именно синергетического анализа. Исходя из этого, практически во всех сферах социальной сферы необходимо проводить исследования по нелинейному (синергетическому) подходу, связанному с разработкой необычных, креативных, конструктивных решений существующих проблем и новым образом мышления.

Данное диссертационное исследование, в значительной степени, служит выполнению задач, намеченных в нормативно-правовых документах и Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, №УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года и Постановления №ПП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы» от 3 мая 2019 года, а также Законы Республики Узбекистан №ЗРУ-576 «О науке и научной деятельности» от 29 октября 2019 года и другие нормативно-правовые акты.

